

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Cho'tmamatova Madina To'raqul qizi

TerDU talabasi. +998932764905

mchotmamatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik iboralarni ularning o'zbek tilidagi muqobillari bilan berish kerakmi yoki ularni so'zma-so'z tarjima qilsak foydaliroq bo'ladimi? degan savolga yechim topishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: leksik va frazeologik birliklar, uslubiy vazifa, badiiy obraz, tarjima funksiyalari.

Abstract: It is necessary to use English phraseological expressions in this article and their Uzbek alternatives, or is it more useful to translate them literally? We will try to find an answer to the question.

Keywords: Lexical and phraseological units, methodological task, artistic image, translation functions.

Til birliklari asosan leksik va frazeologik vositalardan iborat bo'lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga o'girish tarjimon oldiga ma'lum qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar tilning leksik birliklarga nisbatan birmuncha murakkab tarkibiy vositalari hisolanadi. Chunki frazeologik birliklar nutqning badiiy tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy bayonidan ko'ra ko'proq turli tuman uslubiy maqsadlarning ifoda etishida ishtirok etadi. Ularning ushbu vazifalarini tarjimada bejirim talqin etishi badiiy asarning obrazli hamda hissiy tasviriy qiymatini qayta yaratish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarjimadagi u yoki bu frazeologik birliklarning asl nusxa tarkibidagi frazeologizm ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos kelishi yoki kelmasligini ilmiy matniy tahlil asosidagina aniqlash mumkin. Leksik birliklar singari frazeologizmlar ham ko'p ma'noli va ko'p vazifali bo'lganligi tufayli mazmun jihatdan mos ikki til birliklari tarjimada har doim ham bir birlarini almashti- ravermaydi. Muayyan matniy holatda bir birlarini bemalol almashtira oladigan fraziologik ekvivalentlar yoki muqobil variantlar boshqa bir holatda ma'no berishlari yoki uslubiy vazifalari jihatidan farq qilib qolishlari mumkin.[2.B32]

Vinogradovning tasnifiga ko'ra frazeologik birliklar quyidagi turlarga bo'linadi:[3.B42]

1.Frazeologik chatishmalar.

Bunday birikmalarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi.

Masalan:

Open book – Samimiy

Tahlil: Iboradagi “open” (ochmoq) va “book” (kitob) so'zlari lug'aviy ma'noda hech qanday samimiy so'zi bilan bog'liq emas. Ammo bu frazeologik chatishmada ular birgalikda “samimiy” degan ma'noni beradi.

“Kick the bucket”i - “Vafot etmoq”

Tahlil: Iboradagi “kick” (tepmoq) va “bucket” (chelak) so'zlari lug'aviy ma'noda hech qanday o'lim bilan bog'liq emas. Ammo bu frazeologik chatishmada ular birgalikda “vafot etmoq” ma'nosini anglatadi.

2. Frazeologik birikmalar.

Bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga ega , ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'ladi.[3.B42]

“Eye catching” - “Ko'zga tashlanadigan”

Tahlil: “Eye-catching” iborasining tarkibida “eye” (ko'z) va “catching” (ushlamoq) so'zlari bor. Bu birikma bevosita tarjima qilinganda “ko'zni ushlash” degan ma'noni beradi, ammo ko'chma ma'noda bu ibora biror narsaning diqqatni tortadigan, e'tiborga loyiq bo'lishini anglatadi.

O'zbek tilida “ko'zga tashlanadigan”, “diqqatni jalb qiladigan” yoki “o'ziga tortadigan” iboralari ushbu ma'noni aniqroq aks ettiradi.

“Apple of one's eye” – “Ko'zimning oq u qorasi”

Tahlil: Bunda iboradagi so'zlar bevosita bir birilga bog'liq. “Apple of one's eye” iborasi ko'chma ma'noda ishlatiladi va sevgini, qadriyatni yoki e'tiborni anglatadi. O'zbek tilidagi “jonidan ortiq ko'rgan”, “ko'z qorachig'idek aziz” kabi iboralar ushbu iborani to'liq aks ettiradi.

3. Frazeologik birikuvlar.

Bularda tarkibidagi so'zlarning malum bir qismigina ko'chma ma'noga ega , birikmaning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga bog'liq. Bular asosan ot bilan fe'l ning birikuvi bo'lib, fe'l ko'chma ma'noda, ot to'g'ri ma'noda keladi.[3.B42]

“Have a party” – “bazm uyishtirmoq”

Tahlil: Bunda “have” (ega bo'lmoq) va “party” (bazm) manolarini anglatadi va bunda hech qanday ma'no chiqmaydi shuning uchun gapda fe'l ko'chma ma'noda ishlatiladi va “bazm uyishtirmoq” deb tarjima qilamiz.

“Take an exam” – “imtihon topshirmoq” yoki “imtihoni bo'lmoq”

Tahlil: Bunda “take” (olmoq) va “exam” (imtihon) so'zlari take so'zi o'z manoda qo'llanda yaxshi ma'no chiqmaydi va ko'chma ma'noda "imtihon topshirmoq" deb tarjima qilsan bo'ladi. Gapda fe'l ko'chma ma'noda ot o'z ma'noda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar har bir tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi til birligi sanaladi. Ular til birligi sifatida nutqqacha tayyor holatda bo'ladi. Shuningdek, har bir tilda frazeologik birliklar o'ziga xos lingvistik xususiyatga ega. Ammo barcha tillarda frazeologik birliklar til boyligi bo'lib xizmat qiladi. Polisemantik fraeologik birliklar tilning lug'aviy tarkibini va nutqni boyitishga xizmat qiladi va hissiy bo'yoqdorlik ma'nolarini mujassamlashtiradi. Shuning uchun biz tarjima qilayotgan vaqtimizda frazeologik birliklarini omonimlarini to'g'ri qo'llay bilishimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musayev. Q. Tarjima nazariyasi asoslari. T. 2005.
2. Salomov. G'. Tarjima tashvishlari-Toshkent. Fan. 1983.
3. Allayorova. R. R. Tarjimon mahorati. Urganch 2008.
4. Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4
5. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
6. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8(30)). Извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
7. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
8. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
9. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.
10. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into Uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.